

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MUXAMMAS: AN'ANA, VORISLIK VA BADIY TALQIN (NODIRA G'AZALIGA FAROG'AT KAMOLOVA BOG'LAGAN MUXAMMAS MISOLIDA)

Turopova Parizod Shavkat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: turopova.parizod@bk.ru ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-4800-2828>

Annotatsiya.

Maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri Nodiraning "Yorning vasli emas ozorsiz" g'azali hamda Farog'at Kamolovaning mazkur g'azalga bog'lagan muxammasidagi g'oyaviy-badiiy mushtaraklik va farqli jihatlar qiyosiy-tahliliy asosda tadqiq etiladi. Nodira g'azalida ishq, hijron, yor vasli, ag'yor, ozor va oshiqning ruhiy kechinmalari mumtoz poetika qonuniyatlari asosida ifodalangan bo'lsa, Farog'at Kamolova muxammasida mazkur motiv va obrazlar yangi badiiy kontekstda davom ettiriladi. Maqolada taxmischilik an'anasi, adabiy vorislik, intertekstual munosabat, obrazlar tizimi, ramziy ma'nolar, lirik qahramon ruhiyati hamda badiiy san'atlarning qo'llanilishi tahlil qilinadi. Nodira matnidagi "gul – xor", "devor – soya", "sarv" kabi an'anaviy obrazlarning Farog'at Kamolova muxammasida "ganj – mor", "gardi po", "gado", "shum raqib" kabi obrazlar bilan kengaytirilishi shoiraning ijodiy yondashuvini namoyon etishi asoslanadi. Muxammas Nodira poetik an'anasining zamonaviy davomi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Nodira, Farog'at Kamolova, g'azal, muxammas, taxmischilik, mumtoz she'riyat, adabiy an'ana, ijodiy vorislik, intertekstuallik, badiiy talqin, lirik qahramon, ishq, hijron, poetik obraz, ramz.

МУХАММАС: ТРАДИЦИЯ, ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ (НА ПРИМЕРЕ МУХАММАСА ФАРОГАТ КАМОЛОВОЙ НА ГАЗЕЛЬ НОДИРЫ)

Турупова Паризод Шавкат кизи

Джизакский государственный педагогический университет, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье на сравнительно-аналитической основе исследуются идейно-художественные сходства и различия между газелью «Yorning vasli emas ozorsiz» («Не бывает встречи с возлюбленным без страданий») Нодирой, одной из выдающихся представительниц узбекской классической литературы, и мухаммасом Фарогат Камолы, созданным на основе данной газели. Если в газели Нодирой любовь, разлука, встреча с возлюбленным, соперник, страдание и душевные переживания влюблённого выражены в соответствии с канонами классической поэтики, то в мухаммase Фарогат Камолы эти мотивы и образы получают продолжение в новом художественном контексте. Анализируются традиция тахмиса, литературная преемственность, интертекстуальные связи, система образов, символические значения, внутренний мир лирического героя и использование художественно-поэтических приёмов. Обосновывается, что расширение традиционных образов «цветок – шип», «стена – тень», «кипарис» из текста Нодирой такими образами, как «сокровище – змея», «пыль у ног», «нищий», «зловещий соперник», в мухаммase Фарогат Камолы свидетельствует о творческом подходе поэтессы. Мухаммас оценивается как современное продолжение поэтической традиции Нодирой.

Ключевые слова: Нодира, Фарогат Камола, газель, мухаммас, тахмис, классическая поэзия, литературная традиция, творческая преемственность, интертекстуальность, художественная интерпретация, лирический герой, любовь, разлука, поэтический образ, символ.

MUKHAMMAS: TRADITION, CONTINUITY, AND ARTISTIC INTERPRETATION (BASED ON FAROGAT KAMOLOVA'S MUKHAMMAS ON NODIRA'S GHAZAL)

Turopova Parizod Shavkat qizi

Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor (PhD).

Abstract.

The article provides a comparative analysis of the ideological and artistic similarities and differences between "Yorning vasli emas ozorsiz," a ghazal by Nodira, one of the prominent representatives of Uzbek classical literature, and Farogat Kamolova's

mukhammas composed on the basis of this ghazal. While Nodira's ghazal expresses love, separation, union with the beloved, the rival, suffering, and the lover's emotional experiences in accordance with the conventions of classical poetics, Farogat Kamolova's mukhammas develops these motifs and images within a new artistic context. The article analyzes the tradition of takhmis composition, literary continuity, intertextual relationships, the system of images, symbolic meanings, the inner world of the lyrical persona, and the use of poetic devices. It demonstrates that the traditional images of "flower – thorn," "wall – shadow," and "cypress" in Nodira's text are expanded in Farogat Kamolova's mukhammas through such images as "treasure – snake," "dust beneath the feet," "beggar," and "ominous rival," reflecting the poet's creative approach. The mukhammas is evaluated as a contemporary continuation of Nodira's poetic tradition.

Keywords: Nodira, Farogat Kamolova, ghazal, mukhammas, takhmis, classical poetry, literary tradition, creative continuity, intertextuality, artistic interpretation, lyrical persona, love, separation, poetic image, symbol.

Kirish. O'zbek adabiyoti tarixida mumtoz she'riyat an'analari keyingi davr adabiyoti taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatib kelgan. Ayniqsa, g'azal, muxammas, musaddas, nazira kabi janriy shakllar adabiy merosning nafaqat saqlanishi, balki ijodiy o'zlashtirilishi va yangi estetik mazmun bilan boyitilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bir ijodkorning avvalgi shoir matniga murojaat qilishi oddiy taqlid emas, balki adabiy muloqot, ijodiy vorislik va badiiy tafakkur davomiyligining muhim ko'rinishlaridan biridir.

Mumtoz adabiyotda muayyan g'azalga muxammas bog'lash an'anasi taxmischilik deb yuritiladi. Taxmisda keyingi ijodkor avvalgi shoir g'azalining vazn, qofiya va radif xususiyatlarini saqlagan holda, har bir bayt oldidan uchta yangi misra qo'shib, besh misrali band hosil qiladi. Bunda asl matnning ma'no va ruhiyati saqlanishi bilan bir qatorda, unga yangi badiiy obrazlar, ma'no qatlamlari va psixologik talqinlar kiritiladi. Shu bois taxmisni ikki ijodkorning poetik tafakkuri kesishadigan, an'ana va yangilanish uyg'unlashadigan ijodiy jarayon sifatida baholash mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Muxammas — mumtoz she'riyatning eng ko'p tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. Muxammas janri fors-tojik adabiyotida ham eng faol va hajm jihatdan salmoqli she'riy namunalardandir. Fors-tojik adabiyotida ham muxammas janri va uning badiiy takomiliga doir bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Fors-tojik adabiyotining zukko tadqiqotchilaridan, adabiyotshunoslardan S. Ayniy, A. Mirzoyev va X. Mirzozodalar muxammasning shakllanish jarayonini XIV asrda yashab o'tgan Xoja Kirmoniy ijodi bilan bog'laydilar. Adabiyotshunos olimlardan S. Imronov va Sh. Rahmonovlar muxammas yozish ilk bor XII asrda So'zani Samarqandiy ijodi bilan boshlangan deya ta'kidlaydilar. Fors-tojik adabiyotida XII–XIV asrlarda muxammas janri taraqqiyotini tadqiq etgan olim Dilshod Hakimov Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asariga tayangan holda, muxammaslar XI asrda mavjud bo'lgan degan xulosaga keladi [1]. Olim tomonidan muxammas fors-tojik mumtoz adabiyotining o'ziga xos janriy xususiyatlariga ega janri sifatida e'tirof etiladi. Muxammas — musammat janri tarkibidagi eng keng tarqalgan she'riy shakllardan bo'lib, shoir va ijodkorlar muxammas yaratish, taxmis bog'lash, adabiyotda an'anaviy ruhni davom ettirish bilan birga, uni davrga xos yangicha ohanglar, ifoda vositalari, obrazlar bilan boyitganlar, mumtoz she'riyatga bir qadar yangi nafas olib kirishga muvaffaq bo'lganlar.

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida muxammas o'ziga xos o'ringa ega. "Muxammas 5 misrali bandlardan iborat she'riy shakl bo'lib, unda birinchi bandning barcha misralari o'zaro qofiyalanadi; keyingi bandlarda esa avvalgi to'rt misra o'zaro qofiyalanib, beshinchi misra birinchi band bilan qofiyadosh bo'ladi" [2]. Umuman, muxammas arabcha "beshlik" [3], ya'ni har bandi 5 misradan iborat she'r shakli bo'lib, a-a-a-a-a, b-b-b-b-a tarzida qofiyalanadi. Bandlarning oxirida shoir taxallusi ham keltiriladi. Turkiy she'riyatda dastlabki muxammaslar Hofiz Xorazmiy (XIV asr), Yusuf Amiri [4] ijodida uchraydi. Ushbu janr yaratilish xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Mustaqil (tab'i xud) muxammaslar — bir shoirning o'zi tomonidan yaratiladi. Bunda ijodkor boshqa shoir she'rini asos qilib olmaydi, balki o'zi mustaqil ravishda beshlik yaratadi.

2. Taxmis — muallif o'zga shoir yoki ba'zida o'z g'azalini asos-zamin qilib olib, shu mavzuni davom ettirgan holda, vazn, qofiya va radifni saqlab qolib, beshlik yaratadi. Bunda asos qilib olingan g'azaldagi har baytning yuqori qismiga uch misra qo'shiladi. Maqta' bandda taxmis bog'lanayotgan shoirning taxallusi ham keltiriladi [5].

Mazkur tadqiqotlar muxammasning janr sifatidagi nazariy asoslarini belgilash, uning tarixiy taraqqiyoti va poetik xususiyatlarini aniqlash uchun muhim ilmiy zamin yaratadi. Biroq mavjud ishlar asosan muxammasning janriy tabiati, genezisi, shakliy-poetik xususiyatlari, vazn va umumiy taraqqiyot tamoyillarini yoritishga yo'naltirilgan. Muayyan bir g'azalning keyingi ijodkor tomonidan taxmis qilinishi natijasida yuzaga kelgan matnlararo munosabat, badiiy obrazlarning qayta talqini, ma'no ko'lamining kengayishi va ijodiy vorislikning konkret poetik mexanizmlari esa alohida matn misolida yanada chuqurroq tadqiq etishni taqozo etadi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqola mavjud tadqiqotlardan, avvalo, tadqiqot obyekti va tahlil usuli bilan farq qiladi. Unda muxammas janri umumiy nazariy hodisa sifatida emas, balki Nodiraning "Yorning vasli emas ozorsiz" g'azaliga Farogat Kamolova tomonidan bog'langan muxammas misolida konkret matniy munosabat asosida o'rganiladi. Tahlil markazida ikki asarning shakliy o'xshashligini qayd etish emas, balki asl g'azal va taxmis o'rtasidagi an'anaviylik va ijodiy yangilanish nisbatini ochish maqsadi turadi. Maqolaning yana bir muhim farqli jihati badiiy obraz va ramzlarning matnlararo harakatini kuzatishdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nodiraning “Yorning vasli emas ozorsiz” g’azalida ishq, hijron, vafo, sadoqat va insonning ichki ruhiy kechinmalari nozik poetik talqin etiladi. Mazkur g’azalda ham muhabbat faqat visol va shodlik manbayi sifatida emas, balki hijron, rashk, raqib, intizorlik va iztirobni qamrab olgan murakkab ruhiy holat sifatida tasvirlanadi. Farog’at Kamolovanning ushbu g’azalga bog’lagan muxammasi esa Nodiraning poetik fikrini davom ettirib, unga yangi obrazlar va psixologik mazmunlar qo’shadi. Shoira g’azalning vazni, qofiya-radif tizimi hamda yetakchi obrazlarini saqlagan holda, mumtoz matn bilan ijodiy muloqotga kirishadi. Shu jihatdan mazkur muxammasni taxmischilik an’anasining keyingi davrdagi ijodiy davomi sifatida o’rganish muhimdir. Nodira g’azalining birinchi bayti asarning asosiy g’oyaviy yo’nalishini belgilaydi:

*Yorning vasli emas ozorsiz,
Gulshan ichra gul topilmas xorsiz [1].*

Baytda muhabbatning ichki ziddiyati “vasl — ozor”, “gul — xor” munosabatlari orqali ifodalangan. Yorga yetishish, ya’ni visol, oshiq uchun mutlaq shodlik holati emas; u muayyan ruhiy sinov va mashaqqat bilan kechadi. “Gul” va “xor” obrazlari esa mumtoz she’riyatda shakllangan an’anaviy ramziy ma’nolarni mujassam etadi. Gul — go’zallik, yor va muhabbat timsoli bo’lsa, xor unga hamroh bo’luvchi ozor, to’siq va iztirobni anglatadi. Shu tariqa “Gulshan ichra gul topilmas xorsiz” hikmati muhabbatning murakkab va ziddiyatli tabiatini umumlashtiradi.

Farog’at Kamolova muxammasining birinchi bandida Nodiraning ana shu g’oyaviy fikri lirik qahramonning ichki kechinmalari orqali kengaytiriladi:

*Jism aro jon xasta bo’ldi yorsiz,
Hofizim etmas tarahhum, korsiz,
Zoru afg’on etgaymen jim, zorsiz,
Yorning vasli emas ozorsiz,
Gulshan ichra gul topilmas xorsiz [2].*

Nodiraning ikki misrasi muxammas bandining yakunlovchi qismi sifatida kelib, Farog’at Kamolova tomonidan yaratilgan dastlabki uch misradagi kechinmalarni umumlashtiradi. “Jism aro jon xasta bo’ldi yorsiz”, “zoru afg’on” kabi ifodalar orqali yorsizlikning lirik qahramon ruhiyatiga ta’siri konkretlashtiriladi. Nodirada muhabbatning umumlashgan falsafiy mohiyati — visolning ham ozorsiz emasligi ta’kidlansa, Farog’at Kamolovada ushbu fikr yorsizlikdan tug’ilgan xastalik va iztirob bilan bog’lanadi. Natijada taxmisdagi yangi misralar asl baytning ma’nosini shunchaki takrorlamay, uning psixologik zaminini ochib beradi.

Nodira g’azalida hijron va yorsizlik mavzusi keyingi baytlarda ham turli obrazlar vositasida davom ettiriladi:

*Ul parivash vaslidan bo’ldim judo,
Rohati dil qolmadi dildorsiz.*

Bu baytda “parivash” va “dildor” obrazlari yorning lirik qahramon hayotidagi ma’naviy o’rnini belgilaydi. Yordan ayrilish natijasida “rohati dil”ning yo’qolishi muhabbatni tashqi go’zallikka intilish emas, balki insonning ichki ma’naviy ehtiyoji sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Farog’at Kamolova ushbu fikrni taxmisdagi yangi poetik kontekstga ko’chiradi:

*Bir ishora bo’lsa yoxud gardi po,
Ko’zimda nuri umid bo’lmas ado,
Eshigingda bo’ldimu ming yil gado.
Ul parivash vaslidan bo’ldim judo,
Rohati dil qolmadi dildorsiz.*

Mazkur bandda “ishora”, “gardi po”, “nuri umid”, “gado” kabi obrazlar orqali oshiqning yorga ehtiyoji yanada kuchaytiriladi. Nodiraning “Rohati dil qolmadi dildorsiz” degan xulosaviy fikri Farog’at Kamolova taxmisida uning ichki sabablari bilan to’ldiriladi: oshiq uchun yorning hatto bir ishorasi yoki qadami izidan qolgan gard ham umid manbayiga aylanadi. “Eshigingda bo’ldimu ming yil gado” misrasi esa oshiqning muhabbat yo’lidagi muteligini kuchliroq namoyon etadi. Demak, asl baytdagi ma’naviy ehtiyoj taxmisdagi konkret psixologik holat va sadoqat darajasi bilan boyitilgan.

Nodira g’azalida muhabbatning ziddiyatli tabiati “ag’yor” motivi orqali ham ochiladi:

*Yor uchun ag’yor dardin tortaman,
Ko’rmadim bir yorni ag’yorsiz.*

Bu baytda raqib va ag’yor muhabbat yo’lidagi doimiy sinov sifatida talqin etiladi. Lirik qahramon yorga bo’lgan muhabbat bilan birga, uning atrofidagi ag’yorlar tufayli yuzaga keladigan iztirobni ham qabul qiladi. “Yorni ag’yorsiz ko’rmadim” mazmuni muhabbatning shaxsiy kechinmadan tashqari, raqobat va rashk bilan bog’liq murakkab psixologik holat ekanini ko’rsatadi.

Farog’at Kamolova esa mazkur motivni konkret obraz va vaziyatlar orqali yanada shaxsiylashtiradi:

*Menga ermas, o’zgalarga kuldi ul,
Shum raqibning oldida xor bu ko’ngil,
Endi yig’lab yuvsa ketmas dog’i dil...*

Nodirada umumlashtirilgan “ag’yor” tushunchasi Farog’at Kamolova taxmisida “shum raqib” obrazi orqali konkretlashadi. Ayniqsa, “Menga ermas, o’zgalarga kuldi ul” misrasi yorning boshqalarga iltifoti tufayli yuzaga kelgan rashk va alamni ochadi. “Shum raqib” bir tomondan oshiqning raqobatchisini ifodalasa, ikkinchi tomondan uning ichki iztirobini kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo’ladi. “Dog’i dil” metaforasi esa kechinmaning chuqurligini belgilab, ruhiy ozorning osonlikcha bartaraf bo’lmasligini anglatadi.

Shunday qilib, Nodira g’azalidagi muhabbat, hijron, yorsizlik va ag’yor bilan bog’liq an’anaviy poetik motivlar

Farogʻat Kamolova taxmisida yangi psixologik tafsilotlar bilan boyitiladi. Asl matnning gʻoyaviy va badiiy oʻzagi saqlangan holda, unga lirik qahramonning kechinmalarini konkretlashtiruvchi obrazlar kiritiladi. Bu esa taxmischilikni tayyor matnni shaklan davom ettirish emas, balki avvalgi ijodkor poetik tafakkuri bilan muloqotga kirishish va uni yangi badiiy idrok asosida qayta talqin qilish shakli sifatida baholash imkonini beradi.

Nodira gʻazalidagi:

Gulshan ichra gul topilmas xorsiz.

misrasi Farogʻat Kamolova muxammasida ham aynan saqlangan. Bu holat shoiraning Nodira qoʻllagan “gul — xor” ramziy munosabatini qabul qilganini koʻrsatadi. Biroq Farogʻat Kamolova mazkur poetik mantiqni takrorlash bilan cheklanmay, unga maʼnodosh yangi ramziy juftlikni ham kiritadi:

Bu jahonda ganj yoʻqdir morsiz.

Bu ikki ifoda oʻrtasida mazmuniy parallelizm mavjud. Nodirada gul — xor, Farogʻat Kamolovada esa ganj — mor munosabati orqali qimmatli va goʻzal narsaning muayyan xavf yoki mashaqqat bilan birga kelishi haqidagi umumiy falsafiy qonuniyat ifodalanadi. Birinchi holatda goʻzallik va ozor, ikkinchi holatda boylik va xavf oʻzaro zidlikda namoyon boʻladi. Shu tariqa Farogʻat Kamolova Nodiraning anʼanaviy ramziy tafakkurini yangi obraz vositasida davom ettiradi. Bu esa muxammasdagi vorislikni mexanik takror emas, balki ijodiy oʻzlashtirish va badiiy transformatsiya sifatida baholash imkonini beradi.

Ikki asardagi ramziy tizim bilan lirik qahramonning ichki kechinmalari ham uzviy bogʻlangan. Nodira gʻazalida oshiq yordan judo, agʻyor dardida, rohatdan mahrum va yorsizlik iztirobida tasvirlanadi. Farogʻat Kamolova muxammasida esa mazkur kechinmalar “jism aro jon xasta”, “zor-afgʻon”, “nuri umid”, “ming yil gado”, “shum raqib”, “dogʻi dil” kabi ifodalar orqali yanada konkretlashtiriladi. Natijada Nodirada falsafiy-lirik umumlashma tarzida berilgan muhabbat va hijron holati Farogʻat Kamolovada psixologik jihatdan kengaytiriladi.

Nodira gʻazalida:

Tan buzuldi, endi rohat qolmadi,

Soya paydo boʻlmadi devorsiz.

Baytda “devor — soya” munosabati orqali tayanch va himoyaga ehtiyoj ramziy ifodalanadi. Devor boʻlmasa, soya ham paydo boʻlmaydi; shuningdek, lirik qahramon uchun maʼnaviy tayanch vazifasini bajaruvchi yorsiz rohatning ham mavjud boʻlishi mumkin emas.

Farogʻat Kamolova mazkur baytni muxammasga bevosita kiritmaydi. Biroq undagi asosiy maʼno — yorsizlik oqibatida ruhiy xotirjamlikning yoʻqolishi — “Rohati dil qolmadi dildorsiz” misrasida davom ettiriladi. Demak, Nodiradagi devor → soya → rohat mantiqiy munosabati Farogʻat Kamolovada dildor → rohati dil munosabati orqali qayta talqin qilingan. Bu holat ham muxammasda asl matnning har bir obrazini emas, balki uning gʻoyaviy-estetik mohiyatini oʻzlashtirish tamoyili ustuvor ekanini koʻrsatadi.

Nodira:

Berma nisbat qaddiga, ey bogʻbon,

Sarvdur bu bogʻ aro raftorsiz.

misralarida yorning qaddi-qomati va goʻzalligini sarv obrazi vositasida ifodalaydi. Mumtoz sheʼriyatda sarv tik qaddi-qomat, latofat, erkinlik va goʻzallikning anʼanaviy timsollaridan biri hisoblanadi. Nodirada mazkur obraz yorning betakror jozibasini taʼkidlashga xizmat qiladi.

Farogʻat Kamolova muxammasida esa sarv obrazi saqlanmaydi. Bu holatni asl matndan uzilish emas, balki shoirning poetik diqqat markazini boshqa tomonga koʻchirishi sifatida baholash mumkin. Nodirada tashqi goʻzallikni ifodalovchi sarv obrazi muhim oʻrin tutsa, Farogʻat Kamolova taxmisda asosiy eʼtiborni oshiqning ichki ruhiy holati, yorga ehtiyoji va hijron iztirobiga qaratadi. Demak, taxmis jarayonida vorislik barcha obrazlarni soʻzma-soʻz saqlash emas, balki asl matnning badiiy-gʻoyaviy oʻzagini yangi poetik aksentlar bilan davom ettirish tamoyili asosida yuzaga keladi.

Ikki matnni oʻzaro bogʻlovchi eng muhim jihatlardan yana biri — gʻazalning yakuniy murojaatining muxammasda saqlanishidir. Nodira gʻazali:

Nodira ahvolidin ogoh boʻling,

Ey musohiblarki, qolmish yorsiz.

misralari bilan yakunlansa, Farogʻat Kamolova muxammasida:

Nodira ahvolidan ogoh oʻling,

Ey musohiblarki, qolmish yorsiz.

Mazkur misralarning muxammasda aynan yakuniy vazifada saqlanishi Farogʻat Kamolovaning Nodira matniga ehtiromli va ongli munosabatini koʻrsatadi. Ayniqsa, “Nodira” ismining asl matndagi kabi saqlanishi muxammasning maʼnaviy markazini belgilaydi. Farogʻat Kamolova oʻz ovozi Nodiraning lirik kechinmalariga uygʻunlashtirib, uning “ahvoli”ni keyingi davr poetik idroki doirasida qayta namoyon etadi. Shu maʼnoda muxammas nafaqat taxmischilik anʼanasining davomi, balki adabiy xotira va ijodiy vorislikning badiiy ifodasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ikki asar oʻrtasidagi mushtaraklik va farqlarni quyidagi qiyosiy tasnif orqali umumlashtirish mumkin:

Badiiy jihat	Nodira gʻazali	Farogʻat Kamolova muxammasi
Adabiy munosabat	Asosiy matn	Taxmis va ijodiy davom
Poetik shakl	Gʻazal	Muxammas
Asosiy mavzu	Ishq va hijron	Ishq, hijron va ruhiy iztirob
Yetakchi gʻoya	Visol ham ozorsiz emas	Haqiqiy muhabbat sadoqat va sinov bilan bogʻliq

Asosiy obrazlar	Yor, oshiq, ag'yor	Yor, oshiq, raqib, ag'yor
Ramziy juftliklar	Gul-xor, devor-soya, sarv	Gul-xor, ganj-mor, gardi po, gado
Hijron talqini	Falsafiy-lirik	Psixologik-lirik
Oshiq holati	Judolik, ozor	Xastalik, zor-afg'on, gadolik
Ag'yor/raqib talqini	Ag'yor dardi	Shum raqib va uning ruhiy ta'siri
Asosiy kechinma	Ozor va hijron	Sog'inch, zor-afg'on, rashk, sadoqat
Badiiy tamoyil	Mumtoz g'azal poetikasi	Mumtoz an'ana, ijodiy kengaytirish
Intertekstual munosabat	Asl matn	Nodira g'azali bilan ijodiy muloqot
Yakun	Qolmish yorsiz	Qolmish yorsiz (asl yakunning saqlanishi)

Jadvaldan ko'rinadiki, Farog'at Kamolova muxammasida Nodira g'azalining vazniy, qofiyaviy va radifiy asosi bilan birga, uning asosiy obraz va motivlari ham davom ettiriladi. Biroq bu davomiylik asl matnni aynan takrorlash shaklida emas. Shoiri ayrim obrazlarni saqlaydi, ayrimlarini yangi obrazlar bilan almashtiradi, ba'zilarining esa ma'no doirasini kengaytiradi. Xususan, Nodiradagi "gul — xor" munosabatining "ganj — mor" ramzi bilan davom ettirilishi, "ag'yor"ning "shum raqib" obrazi orqali konkretlashtirilishi, "rohati dil"ning yorsizlik bilan bog'liq psixologik holat sifatida kengaytirilishi ana shu ijodiy yondashuvning muhim ko'rinishlaridir.

Shu jihatdan Farog'at Kamolova muxammasidagi vorislikni shakliy va mazmuniy davomiylikning uyg'unligi sifatida belgilash mumkin. Asl g'azalning poetik qurilishi saqlangan holda, uning emotsional va psixologik mazmuni yangi misralar orqali kengaytiriladi. Natijada Nodiraning muhabbat va hijron haqidagi falsafiy-lirik qarashlari Farog'at Kamolova ijodida shaxsiy kechinmalar, rashk, sog'inch va sadoqat motivlari bilan boyitiladi.

XULOSA

Nodiraning "Yorning vasli emas ozorsiz" g'azali va Farog'at Kamolovanning unga bog'lagan muxammasini qiyosiy o'rganish mumtoz adabiy an'ananing keyingi davrda qanday o'zlashtirilishi va qayta talqin etilishini aniq ko'rsatadi. Ikki matn o'rtasidagi munosabatni oddiy taqlid doirasida baholash to'g'ri emas. Chunki Farog'at Kamolova Nodira g'azalining vazni, qofiya-radif tizimi va asosiy ma'no yo'nalishini saqlagan holda, unga yangi badiiy obrazlar va psixologik mazmunlar kiritadi.

Nodira g'azalida muhabbatning ziddiyatli tabiati vasl — ozor, gul — xor, yor — ag'yor munosabatlari orqali falsafiy-lirik darajada ifodalanadi. Farog'at Kamolova esa mazkur poetik mantiqni yorsizlik, xastalik, zor-afg'on, gadolik, rashk, raqib va dog'i dil kabi konkret psixologik holatlar orqali kengaytiradi. Ayniqsa, Nodiradagi "gul — xor" ramziy juftligiga "ganj — mor" obrazining qo'shilishi an'anaviy poetik fikrning yangi timsol orqali davom ettirilganini ko'rsatadi. Bu yerda go'zallik — ozor, boylik — xavf, muhabbat — sinov kabi universal ma'naviy ziddiyatlar o'zaro uyg'unlashadi.

Farog'at Kamolovanning ijodiy yondashuvi asl matndagi barcha obrazlarni o'zlashtirish bilan cheklanmaydi. Masalan, Nodiradagi "sarv" obrazi muxammasda takrorlanmaydi, biroq uning o'rnini oshiqning ichki dunyosiga oid "gardi po", "nuri umid", "gado", "shum raqib", "dog'i dil" kabi obrazlar egallaydi. Demak, shoiri asl matnning tashqi obrazlar tizimidan ko'ra uning emotsional-g'oyaviy o'zagini o'zlashtirishga ko'proq e'tibor qaratadi.

Muxammasning Nodira g'azalidagi "Nodira ahvolidin ogoh bo'ling, / Ey musohiblarki, qolmish yorsiz" mazmunidagi yakuniy misralar bilan tugallanishi esa ikki matn o'rtasidagi badiiy aloqani yanada mustahkamlaydi. Bu yakun orqali Farog'at Kamolova Nodiraning lirik "men"iga murojaat qilibgina qolmay, uning adabiy merosini keyingi davrda davom ettiruvchi ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, mazkur muxammasda an'ana, vorislik va ijodiy yangilanish bir-birini to'ldiruvchi estetik hodisalar sifatida namoyon bo'ladi. Farog'at Kamolova Nodira matnini o'zlashtirish jarayonida uning shakliy va mazmuniy asoslariga tayangan, ammo asl g'azalning badiiy mantig'ini yangi obrazlar, psixologik tafsilotlar va emotsional aksentlar bilan boyitgan. Shu ma'noda muxammasni mumtoz she'riyat an'analariining keyingi davr poetik tafakkurida qayta jonlanishi, adabiy xotiraning davom etishi va ijodiy vorislikning badiiy shaklda namoyon bo'lishining yorqin namunasi sifatida baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish: darslik. – Toshkent: Sharq, 2008. – 368 b. – ISBN 978-9943-00-142-8.URL: [Chirchiq davlat pedagogika universiteti elektron kutubxonasi](#).
2. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – 195 b. URL: [Chirchiq davlat pedagogika universiteti elektron kutubxonasi](#).
3. Yusupova D. Alisher Navoiy taxmislari [Elektron manba]. – 2018.URL: [Xurshid Davron kutubxonasi — "Alisher Navoiy taxmislari"](#).
4. Chustiy. Hayotnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. – 488 b.URL: [Kutubxonachi.uz — "Hayotnoma" elektron nusxasi](#).
5. Nodira – Komila. Devon. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2001. – 349 b. URL: [Nashr bibliografik jihatdan qayd etilgan ilmiy manba](#).
6. Kamolova F. Saylangan she'rlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. – 59 b.Shoiri ijodi: [Farog'at Kamolova — she'rlar](#).
7. Nodirabegim. Yorning vasli emas ozorsiz... [Elektron manba] // Tafakkur.net. URL: ["Yorning vasli emas ozorsiz..." — to'liq g'azal matni](#).